

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA E-TIR XALQARO TRANZIT TIZIMINING HOZIRGI TENDENSIYALARI

*Ergashev Qobiljon Ernazarovich*  
*Bojxona Qo'mitasi Bojxona Instituti katta o'qituvchisi.*

*Akbarov Farmonbek Dilmurod o'g'li*  
*Bojxona Qo'mitasi Bojxona Instituti 4-kurs kursanti*

**Annotatsiya.** Maqolada Xalqaro yo'llarda tashish daftarchasi(TIR carnet)ni qo'llagan holda xalqaro yo'llarda tashishni,ya'ni TIR tashuvlarini O'zbekiston Respublikasida dastlab elektronlashtirish,keyinchalik esa raqamlashtirish jarayonlarining borishi o'rganilib, davriy tartibda yoritilib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotiga a'zo mamlakatlarning e-TIR tranzit tizimiga qo'shilishi jarayonida O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosi istiqbollari tahlil qilinib, aniq raqamlarda jarayonlar monitoringi olib borilgan.

**Аннотация.** В статье периодически изучается и освещается ход электронизации международных автомобильных перевозок, то есть перевозки МДП, в Республике Узбекистан, а затем процесс оцифровки, с использованием книжки МДП. В статье анализируются перспективы внешней торговли Республики Узбекистан в процессе присоединения стран-членов Организации экономического сотрудничества к транзитной системе e-TIR, а также проводится мониторинг процессов в точных цифрах.

**Abstract.** In the article, the progress of the first electronicization and then the digitalization of international road transport, that is, TIR transports in the Republic of Uzbekistan using the TIR carnet, is covered periodically. In addition, the article analyzes the prospects of foreign trade of the Republic of Uzbekistan in the process of joining the Economic Cooperation Organization member countries to the e-TIR transit system, and monitors the processes in precise numbers.

**Kalit so'zlar:** e-TIR tranzit tizimi, "raqamli bojxona" konsepsiyasi, TIR tashuvlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi, implementatsiya jarayonlari, Davlat Bojxona Qo'mitasining Yagona Avtomatlashtirilgan Axborot Tizimi, "AVTO" AAT dasturi, XYT kitobchalari(TIR karnetlar), Safe-TIR, TIR-EPD, EGIS, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti

**Ключевые слова:** транзитная система e-TIR, концепция «цифровой таможни», перевозки МДП, Европейская экономическая комиссия ООН, процессы внедрения, Единая автоматизированная информационная система ГТК, программа ААТ «АВТО», книжки МДП, Safe-TIR, TIR-EPD, EGIS, Организация экономического сотрудничества

**Key words:** e-TIR transit system, "digital customs" concept, TIR transportation, United Nations Economic Commission for Europe, implementation processes, Unified Automated Information System of the State Customs

Committee, "AVTO" AAT program, TIR carnets , Safe-TIR, TIR – EPD , EGIS , Economic Cooperation Organization

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida e-TIR tranzit tizimini to‘liq ishga tushirish bu “raqamli bojxona” konsepsiyasini amalga oshirishda qo‘yilgan yana bir ulkan va kerakli qadam bo‘lishi ma’lum. Zero, TIR tashuvlari xalqaro miqyosdagi yagona umum e’tirof etilgan tranzit tizimi hisoblansa-da, ushbu tizimda amalga oshirilayotgan tashuvlar hozirgi kungacha qator davlatlarda, xususan, yurtimizda ham qo‘g‘ozli rasmiylashtirish jarayonlarini taqozo etayotgani, bu sohada ham raqamlashtirishga ehtiyoj borligini anglatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tashabbusida ishlab chiqilgan e-TIR tranzit tizimi esa ushbu jarayonni, ya’ni TIR tashuvlarini yangi daraja raqamli TIR tranziti darajasiga olib chiqishning yaqqol modeli hisoblanadi. Ushbu Iqtisodiy Komissiyaning tegishli ishchi guruh va qo‘mitalari tomonidan e-TIR xalqaro tizimining konseptual, funksional va texnik tomonlari to‘liq yoritib berilgan bo‘lib, e-TIR tranzit tizimini amalda tatbiq qilmoqchi bo‘lgan davlatlarga texnik va huquqiy hujjatlar hamda asosiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Albatta ushbu e-TIR tranzit tizimini u yoki bu davlat bojxona tizimida joriy etish ushbu davlat bojxona va boshqa TIR tashuvi bilan bog‘liq idora hamda tashkilotlardagi raqamlashtirilganlik darajasi hamda ushbu tashkilotlarda e-TIR tranzit tizimi talablariga o‘tish imkoniyati darajasiga bevosita bog‘liq. Ya’ni, ushbu ikki ko‘rsatkich mamlakatda e-TIR tranzit tizimini joriy etishning qay darajada qiyin yoki oson bo‘lishi hamda ushbu implementatsiya jarayonlariga qancha muddat va vositalar talab etilishini belgilab beradi. Bundan tashqari ushbu e-TIR tizimini to‘liq ishlab ketishi uchun tegishli xodimlardan ushbu tranzit tizimidan foydalana olish ko‘nikmasi hamda bilimi talab etiladi.

Mavzuning dolzarbligi va zarurati

E-TIR tranzit tizimining keng joriy etilishi va ushbu jarayonning Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti(IHT) mamlakatlari e-TIR tizimiga integratsiyasi fonida amalga oshirilishining dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

*Birinchi*dan, boshqa sohalar kabi transport sohasida ham raqamlashtirish, ya’ni E-TIR elektron tranzit tizimini joriy etish, qog‘oz hujjatlar bilan bog‘liq firibgarlik va bojxona qonunbuzarligi holatlarining hamda korrupsiyaning oldini olish imkonini yaratishi;

*Ikkinchi*dan, boshqa davlatlar bojxona tizimlarining ham ushbu E-TIR tranzit tizimiga integratsiya qilinishi orqali tovarlar tranziti tizimida bojxona organlari axborot tizimlari integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqishi;

*Uchinchi*dan, E-TIR tranzit tizimini joriy etish orqali XYT tashuvlarining barcha ishtirokchilari (bojxona, TIF qatnashchilari, transport operatorlari va boshqalar) uchun vaqt hamda xarajatlarni kamaytirilishi;

*To‘rtinchi*dan, O‘zbekiston Respublikasining dengizga chiqishi uchun qulay yo‘nalishda joylashgan Pokiston Respublikasida ham ushbu E-TIR tranzit tizimining joriy etilganligi;

*Beshinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan 2022-yil 17-fevraldagi yig'ilishida bojxona xizmatlarini raqamlashtirish 2022 yilda 70 foizga, 2023 yilda 100 foizga yetkazish bo'yicha topshiriq berilganligi;

*Oltinchidan*, O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosida IHT mamlakatlarining alohida ahamiyatga egaligi va katta ulushni tashkil qilishligi;

*Yettinchidan*, IHT mamlakatlari bilan tashqi savdo koridorlarini ko'paytirish orqali mamlakat tashqi savdo salohiyatini oshirish, dengiz portiga hamda Yevropa bozorlariga qulay va arzon savdo koridorlari yaratish.

Tahliliy qism.

Biz dastlab, O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatida TIR tashuvi bilan bog'liq jarayonlarga bevosita aloqador raqamlashtirish ishlarini rivojlanish evolyutsiyasiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ma'lumki 2007-yilgacha O'zbekiston Respublikasida bojxona rasmiylashtiruv va nazorati bilan bog'liq ishlar qog'oz hujjatlar bilangina amalga oshirilgan. Buning sababi esa ushbu davrgacha O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmatida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining mavjud emasligi bo'lgan. 2007-yilga kelib esa, Davlat Bojxona Qo'mitasining Yagona Avtomatlashtirilgan Axborot Tizimi (DBQ YAAT) ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etila boshlandi. Natijada bojxona xizmatida elektron axborotlar bilan ishlash imkoniyati paydo bo'ldi. Aynan "AVTO" AAT dasturining ishlab chiqilishi ham transport tashuvlari uchun bojxona rasmiylashtiruv va nazorati jarayonlarini elektron ko'rinishga o'tkazish uchun asos bo'ldi.

Xususan, XYT kitobchalari (TIR kornetlar) ni bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda ushbu dastur orqali nazorat hujjatlari yaratish va ularni nazorat qilish hamda nazoratdan yechish imkoniyatlari yaratildi. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston Respublikasining boshqa TIR konvensiyasiga a'zo mamlakatlar bilan bir qatorda XYT tashuvlarida XYT jarayonlarini raqamlashtirish yo'lidagi bir qator vositalarni qabul qilish va implementatsiya qilish bilan davom ettirildi. Jumladan, quyidagi vositalar qabul qilindi:

Safe-TIR – manzil bojxona organlarida XYT operatsiyalarining yakunlanganligi to'g'risidagi axborotni to'plash, uzatish, qayta ishlash va almashishga xizmat qiluvchi axborot tizimi;

TIR-EPD – XYT operatsiyasi orqali tashilayotgan tovar-transport vositalari to'g'risida oldindan ma'lumot taqdim etish tizimi;

EGIS – XYT kafolatlari to'g'risidagi real vaqt ma'lumotlarini so'rov orqali olish tizimi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona tizimida XYT tashuvlari rasmiylashtiruv va nazorati mutlaq raqamlashtirilmagan bo'lsa-da, yuqoridagi va hozirgi kunda ham davom etayotgan raqamlashtirish ishlari e-TIR xalqaro tizimiga o'tish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

2018-yil 3-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi "e-TIR pilot loyihasida qatnashish istagi nomasi"ni imzoladi va ushbu xatni BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tegishli Ma'muriy Qo'mitasiga taqdim etdi.

13-mart 2019-yilda esa "TIR raqamlashtirish loyihasining asosiy tamoyillari" hujjatini imzoladi. 23-oktabr 2020-yilda esa "TIR kornetlari kafolatlari kelishuviga qo'shimcha"larni imzoladi. Ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi tomonidan e-TIR tranzit tizimi tomon qo'yilgan dastlabki ishonchli qadamlar bo'ldi.

Bundan tashqari 2020-yilga kelib mavjud elektron vositalardan foydalangan holda dastlabki elektronlashtirilgan TIR tashuvi O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida "Yallama" va "B.Konysbaeva" o'tkazish punktlari orqali muvaffaqiyatli amalga oshirildi. TIR konvensiyasining 11-ilovasi kuchga kirganini hisobga olgan holda kelgusida Xitoy, Qozog'iston, Ozarbayjon, Gruziya, Armaniston, Turkiya va Eron davlatlari bilan ham ushbu kabi loyihalar amalga oshirilishi reja qilindi. Xususan, 2022-yil 27-dekabr sanasida O'zbekiston Respublikasi Ozarbayjon Respublikasi bilan hamkorlikda jahonda ilk bora e-TIR tranzit tizimini qo'llagan holda tranzit tashuvini amalga oshirdi. Ushbu tashuvda Toshkent shahrining "Arkbuloq" tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postidan eksport uchun rasmiylashtirilgan 4 ta konteynerdagi yuklar havo transporti orqali Ozarbayjon Respublikasining Boku aeroportiga yetkazildi va ushbu voqea jahon matbuoti va xususan BMT tomonidan alohida e'tirof etildi. Ushbu davrga kelib e-TIR xalqaro tranzit tizimiga to'liq integratsiyasi yakuniy bosqichiga yetgan davlatlar O'zbekiston, Ozarbayjon va Gruziyadan iborat edi.

e-TIR loyihasining O'zbekiston Respublikasi uchun alohida ahamiyatli tomonlaridan biri shundaki, ushbu loyihaning dastlabki prioritetida ushbu loyihani Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlarini bog'lovchi koridorlarni yaratish belgilangan.


Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanib, ushbu mamlakatlarning tashqi savdosi asosan bir biri orqali o'tuvchi tranzit koridorlariga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash, tashqi savdoni rivojlantirish aholi turmush darajasini yaxshilash maqsadida bir qator iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lgan. Ana shunday tashkilotlardan yana biri Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti hisoblanib, ushbu tashkilot O'zbekiston Respublikasi uchun alohida ahamiyatli tashkilotlardan biri hisoblanadi. Hozirgi davrga kelib ushbu tashkilotga a'zo mamlakatlarning (O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Eron, Turkmaniston, Tojikiston, Pokiston, Afg'oniston, Turkiya) O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosida yirik ulushni egallashi sir emas. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining asosiy eksport-import operatsiyalari ushbu mamlakatlar hududidan yoki hududiga yoxud ushbu mamlakatlar hududi orqali tranzit tarzida amalga oshiriladi (1-jadval).

*1-jadval*

*IHT ga a'zo mamlakatlardan import qilinuvchi tovarlarning mamlakatimizning jami importidagi ulushi(ming AQSH dollar)*

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
Jami hisobda	12 035 209,00	17 312 259,00	21 855 139,00	19 955 151,00	23 724 275,00
IHT mamlakatlari bilan	1 883 173,00	3 321 352,00	4 079 343,00	3 950 294,00	5 652 206,00
Nisbat foizda	15,65	19,18	18,67	19,80	23,82

O'zbekiston Respublikasida avtotransport vositalarida amalga oshiriladigan xalqaro yuk tashuvlarining bojxona rasmiylashtiruvi oldindan taqdim etilgan ma'lumotga asoslanib amalga oshiriladi. Jumladan, hozirgi kunda ushbu rasmiylashtiruv jarayonlari import va tranzit yo'nalishlari uchun tranzit deklaratsiyasi rasmiylashtiruvi orqali, eksport yo'nalishida esa bojxona yuk deklaratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Ushbu eksport-import operatsiyalarining tahlili shuni ko'rsatdiki O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosida IHT ga a'zo davlatlar alohida ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



*1-rasm. O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar kesimida tovar va xizmatlar importi*


Xususan, import yo'nalishidagi 2017 – 2021 yillar bo'yicha o'tkazilgan besh yillik tahlil shuni ko'rsatdiki, IHT ga a'zo mamlakatlardan import qilinuvchi tovarlarning mamlakatimizning jami importidagi ulushi deyarli barcha yillarda oshib borgan (2-jadval).

2-jadval

*IHT ga a'zo mamlakatlarga eksport qilinuvchi tovarlarning mamlakatimizning jami eksportidagi ulushi (ming AQSH dollar)*

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
Jami hisobda	10 079 210,00	10 920 700,00	14 344 696,00	13 127 295,00	14 034 977,00
IHT mamlakatlari bilan	2 905 732,00	3 199 709,00	4 069 355,00	3 607 308,00	4 718 716,00
Nisbat foizda	28,83	29,30	28,37	27,48	33,62

Xuddi ushbu davr uchun eksport yo'nalishida o'tkazilgan tahlil natijasida, shu ma'lum bo'ldiki, IHT ga a'zo mamlakatlarga eksport qilinuvchi tovarlarning mamlakatimizning jami eksportidagi ulushi barcha yillarda oshib borgan (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining mamlakatlar kesimida tovar va xizmatlar eksporti

Bundan tashqari tahlillar shuni ko'rsatdiki, import yo'nalishida IHT mamlakatlarining 3 tasi top 10 talik, 5 tasi top 50 talik va bittasi top 70 talik davlatlar qatoriga kirgan. Quyidagi jadvalda batafsil kuzatish mumkin (3-jadval):

3-jadval

*O'zbekiston Respublikasining IHT mamlakatlari kesimida tovar importi (ming AQSH dollar)*

№	Davlatlar kodi	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1	398	Qozog'iston(3)	975 267,0	1 509 389,0	1 878 388,0	2 091 366,0	2 701 119,0
2	792	Turkiya(5)	594 443,0	1 096 622,0	1 296 689,0	1 072 526,0	1 655 968,0
3	795	Turkmaniston(7)	105 423,0	237 798,0	388 801,0	395 080,0	687 790,0
4	364	Eron Islom Respublikasi(17)	57 379,0	133 069,0	203 439,0	107 036,0	253 647,0
5	417	Qirg'iziston(23)	72 605,0	126 747,0	124 215,0	138 032,0	157 086,0
6	762	Tojikiston(29)	49 090,0	144 349,0	144 243,0	92 417,0	97 952,0
7	586	Pokiston(39)	24 705,0	63 645,0	22 657,0	24 032,0	50 729,0
8	031	Ozarbajjon(42)	3 018,0	8 845,0	18 849,0	28 671,0	42 083,0
9	004	Afg'oniston(62)	1 243,0	888,0	2 062,0	1 134,0	5 832,0
<b>Jami IHT davlatlari bilan</b>			<b>1 883 173,0</b>	<b>3 321 352,0</b>	<b>4 079 343,0</b>	<b>3 950 294,0</b>	<b>5 652 206,0</b>

*Izoh: Jadvalda qavs ichida mamlakatning O'zbekistonning importida dunyo mamlakatlari bo'yicha tutgan o'rni belgilangan*

Eksport yo'nalishida IHT mamlakatlarining 5 tasi top 10 talik, qolgan 4 tasi top 20 talik davlatlar qatoriga kirgan. Quyidagi jadvalda batafsil kuzatish mumkin (4-jadval):

4-jadval

O'zbekiston Respublikasining IHT mamlakatlari kesimida tovar eksporti (ming AQSH dollar)

№	Davlatlar kodi	Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021
1	792	Turkiya(3)	833 514,0	865 828,0	1 149 658,0	949 066,0	1 638 927,0
2	398	Qozog'iston(4)	977 256,0	1 219 611,0	1 237 315,0	732 315,0	1 023 478,0
3	417	Qirg'iziston(5)	167 796,0	251 150,0	635 158,0	712 544,0	770 421,0
4	004	Afg'oniston(6)	507 912,0	467 087,0	454 350,0	570 571,0	493 900,0
5	762	Tojikiston(7)	75 348,0	136 940,0	190 305,0	284 257,0	329 180,0
6	364	Eron Islom Respublikasi(11)	258 296,0	164 373,0	208 515,0	135 877,0	167 890,0
7	586	Pokiston(12)	7 452,0	29 337,0	93 753,0	97 380,0	126 629,0
8	795	Turkmaniston(18)	53 177,0	35 231,0	51 489,0	74 194,0	95 077,0
9	031	Ozarbajjon(16)	24 981,0	30 152,0	48 812,0	51 104,0	73 214,0
<b>Jami IHT davlatlari bilan</b>			<b>2 905 732,0</b>	<b>3 199 709,0</b>	<b>4 069 355,0</b>	<b>3 607 308,0</b>	<b>4 718 716,0</b>

*Izoh: Jadvalda qavs ichida mamlakatning O'zbekistonning eksportida dunyo mamlakatlari bo'yicha tutgan o'rni belgilangan*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, e-TIR xalqaro tranzit tizimi O'zbekiston Respublikasining "raqamli bojxona" siyosatining istiqbollardan hisoblanib, ushbu tizim mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Ushbu tranzit tizimiga IHT mamlakatlarining barchasi a'zo bo'lish istagini bildirganligi hamda ushbu mamlakatlarning O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosida yirik va muhim o'rin egallashi e-TIR tranzit tizimiga integratsiya jarayonlarini amalga oshirishning dolzarbligini ko'rsatib turibdi.

Tahlillar natijasida quyidagilarni taklif qilish mumkin:

Bojxona organlarining transport tashuvlarini ro'yxatga oluvchi va nazorat qiluvchi yangi axborot tizimida ("E-Tranzit" AAT da) E-TIR tranzit tizimini amalga oshirish imkoniyatlarini yaratish;

E-TIR tranzit tizimini keng joriy etish uchun tegishli amalga oshiriladigan jarayonlar, ushbu jarayonlarda TIF qatnashchilari, bojxona organlari hamda kafolat uyushmalari, xalqaro tashkilotlar huquq-majburiyatlari va harakatlarini aniq ketma-ketlikda aks ettirgan qonunchilik loyihasini ishlab chiqish;

IHT mamlakatlari bilan e-TIR loyihasi doirasida test tashuvlarini amalga oshirib, ushbu mamlakatlar bilan e-TIR xalqaro tizimi doirasida memorandumlar imzolash;

IHT mamlakatlari bojxona xizmatlari hamkorligida e-TIR tizimi doirasida axborot almashishga qaratilgan yagona qoidalar majmuini ishlab chiqish

IHT mamlakatlarida e-TIR tranzit tizimi kafolatlarni boshqarishning yagona siyosatini ishlab chiqish;

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-122-son farmoni, 27.04.2022 yil. // <http://www.lex.uz>.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "1975-yildagi Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi Bojxona konvensiyasiga qo'shilish haqida" gi 131-I son qarori. 31.08.1995 yil. // <http://www.lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalqaro yo'llarda tashish daftarchasini qo'llagan holda yuklarni xalqaro tashish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 727-son qarori. 02.12.2021 yil. // <http://www.lex.uz>.
4. ECO\UNECE\IRU/IsDB Capacity Building Workshop "Promote implementation of Annex 11 of TIR Convention on e-TIR in the
5. ECO region and beyond — Interconnection of National Customs Systems
6. with the e-TIR International System" report 14.04.2021
7. UN Economic and Social Council, Administrative Committee for the TIR Convention. e-TIR concepts. 08.11.2021.
8. United Nations Network of Experts for paperless Trade and Transport in Asia and the Pacific. Towards Electronic TIR Customs Transit System (e-TIR) . 12.09.2014.
9. Iqtisodiy Hamkorlik Tashkilotining rasmiy veb-sahifasi – <https://eco.int>
10. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining rasmiy web-sahifasi e-TIR – UNECE <https://unece.org>
11. E-TIR tranzit tizimining rasmiy web-sahifasi <https://e-TIR.org>